




ANDIJON VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

Andijon viloyatida qurilish sohasini rivojlantirish

2022- YIL
YANVAR-NOYABR

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi


Qurilish ishlari hajmi,
mlrd. soʻmda



2022- yilning yanvar-noyabr oylarida, Andijon viloyatida jami **6025,3** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **106,8 %** ni tashkil etdi.



Yillar kesimida oʻsish surʼati
yanvar-noyabr oylari boʻyicha



Maʼlumot uchun: qurilish faoliyati bu – oʻz-oʻzidan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir

Andijon viloyati qurilish ishlari

Shahar va tumanlar kesimida, mlrd. so'mda



Kapital qurilishning pudrat usuli qurilish jarayonida qatnashayotgan ikki tomon – buyurtmachi va bosh pudratchi (pudratchi) orasidagi munosabatlarni belgilab beruvchi qurilish pudrat shartnomalari asosida bajarilgan qurilish hamda boshqa ishlar shakli hisoblanadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari 2022- yil yanvar-noyabrda

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi.


Qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatkichlar shuni ko'rsatdiki:

Binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 77,9 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 113,3 foizga oshgan;

Fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 17,0 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 103,5 foizga yetdi;

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 5,1 foiz ulushni va 113,1 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

*Iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha qurilish ishlari, foizda*



- Bino va inshootlar qurish
- Fuqarolik obyektlarini qurish
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



*Iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha qurilish ishlari*


Hajm, mlrd. so'm





Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2022- yil yanvar-noyabrda

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **72,3 %** i yoki **4354,4** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 233,0 mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **5,4%** ni tashkil etdi.



Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan 2792,5 mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **64,1 %** ni tashkil etdi.



Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 1328,9 mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **30,5 %** ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida yangi qurilish ishlari 2022- yil yanvar-noyabrda

	Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish	Ulushi jamiga nisbatan % da
Andijon viloyati	4354,4	100,0
Andijon sh.	1510,9	34,7
Xonobod sh.	121,2	2,8
Oltinko'l	212,3	4,9
Andijon	442,6	10,2
Baliqchi	128,1	2,9
Bo'ston	155,7	3,6
Buloqboshi	86,2	2,0
Jalaquduq	172,8	4,0
Izboskan	141,5	3,2
Ulug'nor	84,9	1,9
Qo'rg'ontepa	152,7	3,5
Asaka	164,4	3,8
Marhamat	227,5	5,2
Shahrixon	401,7	9,2
Paxtaobod	179,5	4,1
Xo'jaobod	172,4	4,0

**hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda*

2022- yil yanvar-noyabr oylarida shahar va tumanlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Andijon shahri (1510,9 mlrd. so'm), Andijon tumanida 442,6 mlrd. so'm), Shahrixon tumanida (401,7 mlrd. so'm) va Marhamat tumanida (227,5 mlrd. so'm) qayd etildi.

2022- yil yanvar-noyabr oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari


Korxonalar turlari bo'yicha

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 1,6 % ni tashkil etib, 2021- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 2,6 % punktga ko'payib, 66,6 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 4,9 % punktga kamayib, 31,8 % ni tashkil etdi.

**Jamiga nisbatan
ulushi**.....♦



- Yirik qurilish tashkilotlari
- Kichik korxona va mikrofirmalar
- Norasmiy sektor

O'sish sur'ati

Bino va inshootlarni qurish



Bino va inshootlar qurilishi


2022- yil yanvar-noyabr uchun

Shahar va tumanlar va oylik ko'rsatkichlari

Shahar va tumanlarning hajmi va o'sish sur'ati (mlrd. so'm va foizda)



Hajm va o'sish sur'ati (oy ko'rsatkichlari)




MA'LUMOT UCHUN: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'ati Ulug`nor tumani (2021- yilga nisbatan 225,1%), Jalaquduq tumani (2021- yilga nisbatan 149,6%), Xo'jaobod tumani (2021- yilga nisbatan 160,6 %) ga to'g'ri keldi.

2022- yil yanvar-noyabr oylarida fuqarolik obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 13,4 % ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 5,5 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 86,6 % (5,8 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etib, o'zgarishsiz qoldi.



O'sish sur'ati

Fuqarolik obyektlarini qurish




2022- yil yanvar-noyabr oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

Shahar va tumanlar va oylik ko'rsatkichlari


Shahar va tumanlarning hajmi va o'sish sur'ati

(mlrd. so'm va foizda)



Hajm va o'sish sur'ati

(oy ko'rsatkichlari)




MALUMOT UCHUN: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'ati Bo'ston tumani (2021- yilga nisbatan 727,1 %), Xo'jaobod tumani (2021- yilga nisbatan 262,4 %), Buloqboshi tumani (2021- yilga nisbatan 198,5 %) va Baliqchi tumani (2021- yilga nisbatan 260,5 %)ga to'g'ri keldi.

2022- yil yanvar-noyabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari


Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 4,5 % punktga ko'paydi va 7,3 % ni tashkil etdi. Qolgan 92,7% i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 4,5 % punktga kamaydi.



O'sish sur'ati

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



174,6%

Yirik qurilish tashkilotlari

64,2%

Kichik korxona
va mikrofirmalar

2022- yil yanvar-noyabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


Shahar va tumanlar va oylik ko'rsatkichlari

Shahar va tumanlarning hajmi va o'sish sur'ati (mlrd. so'm va foizda)





MALUMOT UCHUN: Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'ati Qo'rg'ontepa tumani (2021- yilga nisbatan 467,9 %), Marhamat tumani (2021- yilga nisbatan 449,7 %), Baliqchi tuman (2021- yilga nisbatan 256,2 %) va Xonobod sh. (2021- yilga nisbatan 202,7 %)ga to'g'ri keldi.

Hajm va o'sish sur'ati (oy ko'rsatkichlari)



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **233,5** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **5791,8** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning Viloyatdagi ulushi mos ravishda **3,9 %** va **96,1 %** ni tashkil etdi.



yanvar-noyabr oylarida hajm, mlrd. so'm



233,5
mlrd. so'm
Davlat mulki

5791,8
mlrd. so'm
Nodavlat mulk


Ma'lumot uchun: nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Xonobod shaharida (ushbu shaharidagi qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 foizi), Andijon tumanida (qurilish ishlari umumiy hajmining 99,4 foizi) va Oltinko'l tumanida (ushbu tumanidagi umumiy qurilish ishlarining 99,1 foizi) qayd etildi.

2022- yil 1- dekabr holatiga qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaranganda:

- bino va inshootlar qurilishi 60,6 % ni tashkil etdi, o'sish sur'ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 107,0 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlari qurilishi 9,1 % darajasida qayd etildi, o'sish sur'ati 116,2 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 30,3 %, o'sish sur'ati 102,3 % ni tashkil etdi.

Jamiga nisbatan
ulushi



- Yirik qurilish tashkilotlari
- Kichik korxona va mikrofirmalar
- Norasmiy sektor